

TIL VA QADRIYATLAR: O‘ZBEK TILINING AKSILOGIK TAHLILI

Axmedova Aziza Rustamovna,

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilida aks etgan qadriyatlarning aksiolingvistik jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda tilning nafaqat kommunikativ vosita, balki xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy-me‘yoriy qarashlarini ifodalovchi muhim tizim ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: qadriyat, olqish, duo, ma‘naviy qadriyatlar, Ekzistensial qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье анализируются аксиолингвистические аспекты ценностей, отраженных в узбекском языке. В исследовании обосновывается, что язык является не только коммуникативным средством, но и важной системой, выражающей исторический опыт, мировоззрение и нравственно-нормативные взгляды народа.

Ключевые слова: ценность, благопожелание, молитва, духовные ценности, экзистенциальные ценности.

Abstract. This article analyzes the axiolinguistic aspects of the values reflected in the Uzbek language. The study substantiates that language is not only a means of communication, but also an important system expressing the historical experience, worldview, and moral and normative views of the people.

Keywords: value, applause, prayer, spiritual values, Existential values.

Kirish. Til inson tafakkurining mahsuli bo‘lish bilan birga, u xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, urf-odatlarini va axloqiy-me‘yoriy qarashlarini ham o‘zida aks ettiradi. Masalan, o‘zbek tilida ishlatiladigan “halollik”, “or-nomus”, “kattaga hurmat”, “mehr-oqibat”, “sog‘lik”, “baraka”, “farzand” kabi tushunchalar faqat leksik birlik emas, balki xalqimizning qadriyat sifatida qadrlanadigan tushunchasidir.

Aksiolingvistik tadqiqotlar bu tushunchalarning til orqali qanday ifodalanishini, qanday ijtimoiy vazifalarni bajarayotganini o‘rganadi. Shu tariqa til – nafaqat fikr almashish vositasi, balki qadriyatlar tizimining tashuvchisi va targ‘ibotchisiga aylanishi mumkin.

Bugungi globallashuv sharoitida turli madaniyatlar va qadriyat tizimlarining o‘zaro ta‘siri kuchayib borayotgan bir paytda, milliy tilimizda mavjud qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni ilmiy asosda tadqiq etish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda o‘zbek tilida qadriyatlarning ifodalanishi masalasi avvalgi ilmiy izlanishlar bilan uzviy bog‘liq holda yoritildi. Xususan, F.Usmanovning lingvomadaniy yondashuvga asoslangan ishlari milliy qadriyatlarning til tizimidagi aksini ochib berishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, R.Yunusovning frazeologizmlar orqali qadriyatlarni tahlil qilishi turli tillarda aks etgan axloqiy-me‘yoriy qarashlarni qiyosiy o‘rganish imkonini beradi. O‘zbek maqollari va barqaror birliklariga bag‘ishlangan tadqiqotlar esa xalq og‘zaki ijodida qadriyatlarning mustahkam ifodalanganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda aksiolingvistik, lingvomadaniy va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Til birliklari badiiy matnlar, maqollar, duolar va frazeologizmlar asosida tahlil qilinib, ularning qadriyat ifodalashdagi funksiyasi ochib berildi. Shuningdek, qiyosiy va deskriptiv yondashuvlar orqali til va qadriyatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslandi.

Tahlillar va natijalar. Ma'naviy qadriyatlar. Vatan – inson uchun eng muqaddas va bebaho tushunchalardan biridir. U inson tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan zamin, ajdodlar taqdirini o'zida mujassam etadi. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da vatan so'zi quyidagicha izohlangan: “1 Kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i; yurt, diyori. 2. Kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; ona yurt”. F.Usmonov o'z tadqiqotida vatanni, birinchi navbatda, ona timsolida jonlanishini ta'kidlaydi va bu antropomorf kod ekanligini quyidagicha izohlaydi: “Bu antropomorf kod bo'lib, ona farzandini unib-o'stirgani kabi, vatan ham uni oyoqqa turg'azadi, bag'rida erkalaydi; inson voyaga yetgach, hayot tashvishlari ortidan onasidan bir muddat bo'lsa-da uzoqlashadi, uni sog'inadi. Vatanni onaga qiyoslash turkiylarning *Tangri – ota, yer – ona* degan qadimgi mifologik tasavvurlariga borib taqaladi”. Onaning farzandini bag'rida asrab-avaylab voyaga yetkazishi kabi vatan ham insonni tarbiyalaydi, unga til, madaniyat, o'zlik va hayotga tayanch beradi. Inson ulg'ayib, turli sabablar bilan vatandan uzoqlashishi mumkin, ammo qalbidagi ona yurtiga bo'lgan mehr, sog'inch yo'qolmaydi. Bu holat fikrda juda tabiiy va hayotiy qiyos orqali ochib berilgan. Demak, vatan faqatgina hudud emas, balki til, madaniyat, tarix, urf-odat va milliy qadriyatlarning yagona timsolidir.

Vatan qadriyati inson qalbida vatanparvarlik, sadoqat va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantiradi. O'z vatanini sevgan inson uni asrash, obod qilish va rivojlantirish uchun bor kuchini sarflaydi. Vatanga bo'lgan muhabbat halollik bilan mehnat qilish, qonunlarga hurmat, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish orqali namoyon bo'ladi.

Ajdodlarimiz vatan ozodligi va tinchligi yo'lida jon fido qilganlar. Ularning jasorati va fidoyiligi bugungi avlod uchun ibrat maktabidir. Shu bois, vatan qadriyatini anglash – tarixni bilish, milliy o'zlikni his etish va mustaqillik ne'matining qadriga yetish demakdir.

– *Ilohim shu niyatimizga yetaylik! Vatanimiz berahm fotihlardan xalos bo'lsin!*
(P.Qodirov. “Yulduzli tunlar”.)

Ushbu matnda vatanparvarlik ruhi va samimiy iltijo, orzu mujassam. “Ilohim” so'zi orqali niyatning pokligi, ishning adolat va ezgulik yo'lida qilinayotgani ta'kidlanadi. Bu oddiy istak emas, balki vatan taqdiri uchun yurakdan chiqqan duo sifatida yangraydi. *Vatanimiz berahm fotihlardan xalos bo'lsin!* jumlasini ozodlikka bo'lgan kuchli intilish, bosqinchilikka nafrat va xalq tinchligini istash g'oyasini ifodalaydi. Xullas, ushbu duoda xalqning erkinlikka bo'lgan orzusi, adolatga ishonchi va kelajakka umidini ixcham, ammo ta'sirchan tarzda ifodalangan.

Mehnat va mehnatsevarlik o'zbek xalqining azaliy qadriyatlaridan biri sifatida sanaladi. Ma'naviy-axloqiy jihatdan mehnatsevarlik halollik, sabr-toqat, intizom va mas'uliyat kabi fazilatlar bilan uzviy bog'liq. Milliy madaniyat va xalq og'zaki ijodida mehnat ulug'lanib, dangasalik qoralanadi.

Yer yuzida yashagan inson

Mayliga, u qayerlik bo'lsin,

Tinch mehnatda kunlari shodon,

Kechalari xayrli bo'lsin. (E.Vohidov. "Xayrli kech")

O'zbek xalqining eng qadimiy qadriyatlaridan biri mehnat, mehnatsevarlik hisoblanadi. Ushbu to'rtlikda ham insonning millati, hududi yoki ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har bir kishi uchun eng oliy qadriyat sifatida mehnat va osoyishta hayot ulug'lanadi. Bu yerda mehnat moddiy ehtiyojni qondirish vositasi bilan birga, shaxsiy farovonlik va ruhiy qoniqish manbayi sifatida namoyon bo'ladi. "Kechalari xayrli bo'lsin" ifodasi esa kunduzgi halol mehnatning oqibati sifatida kechadigan osoyishta, xotirjam hayotni ramziy tarzda ifodalaydi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida ham mehnat, mehnatsevarlikni ulug'lovchi maqollar ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan: *Mehnat – yerda qolmas; Mehnat kishini boqar, Yalqovlik o'tga yoqar; Barakaning onasi – mehnat, Otasi – sa'yi harakat; Baxtni mehnatdan izla; Birovning bergani – ko'rgulik, mehnatning bergani – to'yulik.*

Mehnatsevarlikni turg'un o'xshatishlar orqali obrazli ifodalashda etalon sifatida biomorf kod – chumoli va asalari etalonlari tanlanib, bu ushbu so'zlarning milliy-madaniy konnotatsiyasini ko'rsatadi.

Xalqimiz mehmondo'stlikni azaldan ulug'lab kelgan va o'zining samimiy mehmondo'stligi bilan qadimdan mashhur bo'lgan. Mehmon – bu uyimizga, yurtimizga yoki qalbimizga kelgan aziz insondir. O'zbek xalqida mehmon alohida hurmat qilinadi, chunki u baraka va yaxshilik ramzi hisoblanadi. "*Mehmon – otangdan ulug'*", "*Mehmon kelar eshikdan, rizqi kirar teshidan*", "*Mehmon oldida hatto mushugingni pish dema*" kabi maqol va hikmatlar ham xalqimizning mehmonni naqadar e'zozlashini ifodalaydi. Ko'plab sharaflari hadislarda ham mehmonni izzat qilishga targ'ib qilinadi.

Mehmondo'stlik esa milliy qadriyatlarimizning eng go'zal jihatlaridan biridir. U nafaqat ovqat bilan, balki mehr, hurmat va samimiyat bilan namoyon bo'ladi. Shu bois mehmondo'stlik odamlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlaydi, mehr-oqibatni oshiradi.

R.Yunusova rus va tatar tillaridagi "mehmondo'stlik/qo'noqchilik (гостеприимство / кунакчылык) ma'nosini ifodalovchi frazeologizmlarda aks etgan qadriyatlarni tadqiq qiladi. Tadqiqotda rus va tatar tillaridagi iboralar (frazeologizmlar)da mehmon uchun etiketga yoki muomala qadriyatlariga oid muloyimlik, kamtarlik, hurmat va xushmuomalalik kabi odob-axloq qoidalariga rioya qilish talab etiladi, masalan: "Гость хозяину не указчик, дома как хочу, а в гостях как велят; В чужом доме не осуждай!"

Palov pishgandan keyin davra qurishib o'rtaga laganlarni qo'yib, oling-oling deyishib, qo'y boqqanning umri uzoq bo'lsin degan gaplarni aytib mazza qilib yeyishibdi. (X.To'xtaboyev. "Jannati odamlar".)

Mazkur matnda o'zbek milliy an'anasi va qadriyati aks etgan. Kelgan mehmonlarga qo'y so'yish va ularga tansiq ovqat – palov tayyorlash, dasturxon yozish o'zbek xalqining mehmondo'stligidan dalolat. "Oling-oling" kabi takliflar esa mehmonni izzat-ikrom qilish, saxovat va ochiqko'ngillik kabi axloqiy qadriyatlarning namoyon bo'lishidir. Shuningdek, *qo'y boqqanning umri uzoq bo'lsin* iborasi mezbonga nisbatan bildirilgan ezgu tilak bo'lib, unda xalq og'zaki ijodiga xos duo va minnatdorlik mujassam. Xulosa qilib aytganda, keltirilgan parchada o'zbek xalqining mehmondo'stlik, mehr-oqibat va mehnatni ulug'lashga asoslangan ma'naviy-madaniy qadriyatlar ifodalangan.

Ekzistensial qadriyatlar. Farzand o'zbek xalqining eng muhim qadriyatlaridan biri sanaladi. Ota-bobolarimiz farzand ko'rganda unga atab daraxt ekishgan va ushbu yosh niholni parvarishlab, katta va sersoya daraxt bo'lishiga sababchi bo'lishgan. Shuning uchun ham "ko'chat so'zini eshitish bilanoq til egalari ongida ijobiy aura: ko'chat – yosh nihol; ko'chat – bog'dorchilik; ko'chat – farzand (obrazli qiyofa) shakllanadi". O'zbek xalq maqollari orasida ham farzand qadriyati aks etgan maqollari mavjud: *Farzandli uy bozor, farzandsiz uy mozor; Farzandsiz kishi – mevasiz daraxt; Tog'ning ko'rki – lola bilan, uying ko'rki – bola bilan; Farzand – belning quvvati; Odamning mevasi – bola; Ona bilan bola – gul bilan lola; Farzand – jonga payvand* va b. Shuningdek, xalq qo'shiqlari va duolarida ham farzand aziz ne'mat ekanligi ifodalanadi:

Ramazon aytib keldik eshingingizga,

Xudoyim o'g'il bersin beshigingizga.

Ramazon hayiti eng muhim diniy bayramlardan biri hisoblanadi. U mehr-oqibat, yaxshilik, ishonch va sadoqatni mustahkamlash ramzidir. Ushbu qo'shiq Ramazon hayiti munosabati bilan aytiladigan an'anaviy duo shaklida bo'lib, xalq og'zaki ijodiga xosdir. Bayramda xonadonlarga tashrif buyurganlar tomonidan aytiladi va samimiy tilak sifatida qabul qilinadi. ***Xudoyim o'g'il bersin beshigingizga*** duosi farzand, xususan o'g'il farzand ko'rishga qaratilgan tilakdir. Farzand oilaning davomi va barakasidir, o'g'il farzand esa ko'pincha oilaning tayanchi va himoyachisi sifatida qaraladi.

O'zbek tili barqaror birliklarida *beshik* yoshlik; vatan, yurt, makonni: *Beshikda tekkan, kafanda ketar; Ona yurtning – oltin beshiging; Elning ichi – oltin beshik ...* ifodalaydi. "Beshik" leksik birligi orqali yangi hayot, chaqaloq tushuniladi va u, asosan, oilaviy baxtning ramzi sifatida ishlatiladi.

Omin, tinchlik, xotirjamlik bo'lib, yanagi shu yilda bolamning xonadonida chaqaloq yig'isi eshitilsin! Omin, Ollohu akbar! – Oychechak opa yuzini silab, Po'latga sinovchan qaradi. (U.Hamdani. "Ota".)

Ushbu matnda ham farzand ko‘rish, oilaviy baxt kabi eng muhim qadriyatlar aks etgan. Mazkur duo yangi avlodning kelishi va oilaviy hayotning barqarorligiga qaratilgan samimiy tilakdir.

– *Qozon to‘la osh bo‘lsin, yostiqlik to‘la bosh bo‘lsin, deyaqimiz!* (T.Murod. “Oydinda yurgan odamlar”)

Qozon to‘la osh bo‘lsin, yostiqlik to‘la bosh bo‘lsin iboralari o‘zbek xalqi madaniyatida oiladagi farovonlik, tinch-totuvlik, barakani, shuningdek, farzandlarning ko‘p bo‘lishi va osoyishtaligini ramziy tarzda ifodalaydi. “Qozon” va “yostiqlik” metaforalari orqali baraka, farzand, oilaviy baxt va farovonlik qadriyatlarini obrazli va poetik uslubda aks ettirgan.

Hayotiy qadriyat. Sog‘lik qadriyati inson hayotidagi eng muhim umuminsoniy va ijtimoiy qadriyatlardan biri hisonlanadi. U shaxsning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta‘minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Sog‘lik mavjud bo‘lgan holdagina inson jamiyati hayotida to‘laqonli ishtirok etishi, mehnat qilishi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi mumkin. Sog‘lik qadriyati xalq og‘zaki ijodi, diniy qarashlar va urf-odatlarda keng aks etgan. Duo va tilaklarda “sog‘-salomat bo‘lish”, “umri uzoq bo‘lish” kabi iboralarning tez-tez qo‘llanilishi jamiyatda sog‘likning ustuvor qadriyat sifatida qabul qilinishini ko‘rsatadi.

F.Usmanov *sog‘lik* leksemasining etimologiyasini o‘rganar ekan uning ma‘nosini boshqa tillar bilan qiyoslaydi. “Tilga olingan lug‘atda mualliflar *sog‘*ning “kasaldan xoli, *sog‘lom*” ma‘nosi mo‘g‘ul tili materiallari bilan tasdiqlanishini yozadi. G.Ramsted turkiycha *sag‘* “*sog‘lom*”ni hamda mo‘g‘ulcha *sajin* “yaxshi, *sog‘lom*”ni oltoy shaklidagi *saginga* bog‘laydi. U *sayal* hosila fe‘lini *sāl* – “yashamoq, *sog‘lom* bo‘lmoq” so‘zi bilan bog‘laydi. Qiyoslang: rus tilida *правильно* to‘g‘ri, *прав* – haq, *правда* – rost (asos “*прав*” – “o‘ng”); ingliz tilida *right* o‘ng, haq, to‘g‘ri, huquq. Demak, tarixiy-etimologik jihatdan *sog‘lik* insonga xos bo‘lgan, “to‘g‘ri” holat, kasallik esa “noto‘g‘ri” holat hisoblanadi. Ehtimol, shu normal holatdan chekinish bo‘lgani uchun ham xastalikning turg‘un o‘xshatishlar orqali ifodalari salbiy baho ottenkasiga ega bo‘ladi”.

– *Iloyo ovmin, – menga qarab fotiha o‘qidi Ahmadqul bobom, – qadam yetdi, balo yetmasin, o‘rtog‘imning tuzalib qolgani rost bo‘lsin, ollohu akbar!*

(X.To‘xtaboyev. “Jannati odamlar”.)

Ushbu matnda duo qilinayotgan shaxs va uning sog‘ligi yaxshilanganli va bundan shukronalik hissi ifodalangan. “Qadam yetdi, balo yetmasin” kabi iboralar xalq og‘zaki nutqida qo‘llaniladigan duo-formulalar bo‘lib, ular insonni xavf-xatardan himoyalash, *sog‘-salomat* yurish tilagini anglatadi. “O‘rtog‘imning tuzalib qolgani rost bo‘lsin” jumlasida esa *sog‘liq*, yaxshilik va umid qadriyatlarini namoyon qiladi. “Allohu akbar” iborasining qo‘llanilishi duoning yakunlovchi diniy belgisi sifatida matnga muqaddaslik bag‘ishlaydi. Shu bilan birga, fotiha o‘qish jarayoni ijtimoiy-psixologik jihatdan tasalli berish, umid uyg‘otish va ruhiy qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajaradi. Shuningdek, matnning ta‘sirchanligini oshirib, xalqonaligini ta‘minlagan.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, til ijtimoiy ong mahsuli sifatida nafaqat kommunikativ vosita, balki jamiyatning aksiologik tizimini aks ettiruvchi muhim semiotik hodisa hisoblanadi. O‘zbek tilida qo‘llaniladigan “vatan”, “mehnat”, “mehmondo‘stlik”, “farzand”, “sog‘lik: kabi tushunchalar lingvistik birlik sifatida emas, balki milliy-madaniy qadriyatlarning konseptual ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, badiiy matnlar va folklor namunalari ushbu qadriyatlarning diskursiv realizatsiyasini ta’minlab, ularning ijtimoiy ongda mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Natijada til nafaqat qadriyatlarni aks ettiruvchi vosita, balki ularni saqlovchi va avlodlararo uzatuvchi mexanizm sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Madvaliyev A., Xudoyberganova D. tahriri ostida. 6 jidli. 5-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
2. Usmanov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. d-ri (DSc)... diss. – Andijon, 2024.
3. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар маъзани. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001.
4. Юнусова Р. Аксиология фразеологизмов со значением ‘гостеприимство / кунакчылык’ в русском и татарском языках: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Казань, 2009.
5. Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили: Филол. фан бўйича ф-са д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022.
6. Муқимова Z. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi o‘rni (o‘zbek tili barqaror birliklari misolida): Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934